

Faxriyorning poetik mahorati

Ahmatova Muxlisa.

Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida Faxriyorning poetik mahorati xususida fikrlar berilgan. Shuningdek, xalqimizning millatparvar shoiri Faxriyorning ba'zi she'rlaridagi poetik obraz timsollari borasida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Faxriyor, she'riyat, adabiyot, poetika, ijod, tushuncha, mazmun, yangilik, namuna.

She'riyat asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida o'zini namoyish qilib kelgan she'riy asarlarda lirik qahramonlarning his - tuyg'u va kechinmalari, orzu umidlari va maqsadlari, albatta davr bilan bog'liq bo'ladi. Ko'p davrlarda she'riyat jamiyat va ijtimoiylikka hizmat qilib keldi. Ammo, yangi o'zbek zamonaviy she'riyati degan tushincha paydo bo'lgani, she'riyatimizda tub burilish amalaga oshirilganidan dalolat.

Lekin 80-yillar adabiyoti vakili hisoblangan shoir ijodining dastlabki pallalaridayoq, hali modernizm o'zbek adabiyotiga oqim sifatida keng kirib kelmagan paytlardayoq yangiliklarga, ijodiy kashfiyotlarga mas'ullik bilan yondashganini kuzatish mumkin. Masalan, uning "Dardning shakli" (1997), Geometrik bahor (2004), "Ayolg'u" (2000) kabi to'plamlariga turli yillardagi she'rlari kiritilganligi uchun tahlil va talqin natijasida uning ijodini o'n yilliklarga bo'lib, 80-yillar, 90-yillar hamda 2000-yildan keyingi she'riyati tarzida o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lishi ko'rinadi. Chunki shoirning 80-yillardagi she'riyati ijodining daslabki pallalari hisoblanib, mazkur yillarda yaratilgan ijod namunalari shakl borasida XX asr an'anaviy she'riyati qabilida ekanligi hamda ularda fikriylikdan ko'ra hissiylik, nekbinlikning ustun ekanligiga ko'ra meditatif lirika namunalari deyish mumkin. Aslida, bu ta'rifni ko'pchilik shoirlarga nisbatan ham aytsa bo'ladi. Aksariyat shoirlar ijod olamiga pokiza hislar, tiniq tuyg'ular bilan kirib keladi. Lekin Faxriyorning o'sha yillardayoq ijodga, dunyoga zukkolik va teran nigoh bilan boqqanligini, o'xshatishlar va ko'chimlarni sun'iy yaratmaganligi, balki mavjudlarini izlab topganligini ko'rish mumkin:

Taxir bir sharobsan, o shirin hayot,

Sabrim kosasiga seni quyarkan,

Icharman ko'zyoshni ichganim kabi.

Ushbu misralarda shoir an'anaviy ramz-u timsollarga novatorlik bilan yondashadi, ya'ni Sharq adabiyotida may va sharobning Umar Xayyom ruboiylari va Hofiz g'azallaridan boshlab hayotning ramzi sifatida ishlatilgani bizga ma'lum.

"Bugungi o'zbek she'riyat kechagi she'riyat emas, balki o'zining ko'pkina, xususan, shakliy - mazmuniy mundarijasiga ko'ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir". Poetik tafakkur davrlar o'tishi bilan yangilanadi. Bugungi o'zbek zamonaviy she'riyatining yorqin namoyondasi Faxriyor she'rlari misolida yangi poetik tafakkur tuyg'ularini ko'rib chiqamiz.

Faxriyor she'riyati deganda aksariyat hollarda istiqlool davri adabiyotida o'zgacha shakl va mazmuniy yangiliklar kiritib modernistik she'riyat namunalari yaratgan shoir tushuniladi. Chunki uning ijodi bilan batafsil va yaqindan tanish bo'lmagan keng kitobxon ommasi shoir

she'riyati haqida maktab darsliklari kiritilgan ma'lumotlar bilan shorning bir qatorlik "Oy – bolta" kabi she'rlari yoki tinish belgisi va bosh harflarga amal qilinmay yozilgan she'rlari mavjudligidan xabardordirlar. Ozroq bo'lsa-da bu ma'lumotlar ham shoirning ijodi haqida bir qadar tushunchaga ega bo'lishga imkon beradi, albatta. Shoirning shakl va mazmun borasida jiddiy izlanishlar olib borib she'riyatda o'ziga xos yangiliklar qilgani va butun ijodiy individualligi bilan modernistik adabiyot vakili ekanligi ham ko'rinadi.

Sevgilim
umidlarimni uzib
guldasta yasadim
sen uchun
uzilgan ko'nglimni qog'ozday yoyib
dastani o'radim
chiroyli qilib

She'rning eng avvalo shakli boshqachaligi bilan e'tiborli, unda barcha so'zlar kichik harflar bilan yozilgan va hech qanday tinish belgi yo'q. Shakl ham erkinlikni ko'rsatib turibdi. Bu erkinlik mazmunga ham ko'chgan, albatta Umidi uzilgan inson o'sha uzilgan umidlaridan sevgilisiga guldasta tutishi, va uni uzilgan ko'ngliga o'rab bir dasta hosil qilishi ajoyib hodisa. Bunda lirik qahramonning o'ziga hosligi va sevgan insoniga haqiqiy guldasta emas balki, unga tuyg'ularidan (uzilgan, toptalgan) hislaridan guldasta yasab sovg'a qilishi lirik qahramonning hech kimga o'xshamagan alohida shaxsligidan darak.

Ko'rib turibsizki, shoir she'rlarida ijtimoiylik bor, ammo u shaxs haqida va shaxsning alohida xususiyatlari haqida. Darhaqiqat, zamonaviy o'zbek she'riyati ham sharq, ham g'arb an'alarini o'z ichiga olmoqda. Endilikda ahli ijodkordan erkin yurak, erkin fikir va o'ziga xos nozik tuyg'ularning namoyishini kutmoqda. "She'rni she'r qiladigan, o'quvchi ko'ngil olamini nurlantiradigan muhim omil - tuyg'uning samimiyligiga e'tibor tobora ortib borayotir. Bu tamoyillarning namoyon bo'lishi yangi zamon o'zbek she'riyatining badiiyat jihatidan jahon adabiyotining yuksak namunalaridan qolishmasligini anglatadi" Darhaqiqat, o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning yuksalishi kelgusi avlod she'riyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ulug'bek Hamdam. Erkin adabiy tafakkur va bugungi o'zbek she'riyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2013 48- son.
2. Maftuna Xolova. O'zbek modern she'riyati: tarixi va nazariyasi. –T.: Navro'z, 2018. –B. 84.
3. Faxriyor. Ayolg'u. Toshkent "Sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati 2000
4. Faxriyor. Izlam. –T.: Akadernashr, 2016. –B. 124.
5. Jabborov N. Yangi o'zbek she'riyatida tamoyillar.